XALQ DEPUTATLARI G‘IJDUVON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 20-fevral VII-7-22-2-34-K/25 G‘ijduvon tumani

G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2024-yil yillik ijrosi to‘g‘risida

G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2024-yil yillik ijrosi hamda byudjet reja ko‘rsatkichlarini to‘liq va sifatli bajarilishini ta’minlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilangan.

Joriy yil yakunlari bo‘yicha G‘ijduvon tumani mahalliy byudjeti daromadlari 162,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

O‘z navbatida, mahalliy byudjetdan 395,3 mlrd. so‘m miqdorida xarajatlar amalga oshirildi, shundan 282,6 mlrd. so‘mi yoki 71,5 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlariga yo‘naltirildi.

Tuman hokimligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi hamda Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-sonli qaroriga asosan Prezident Farmon va qarorlari, Byudjet kodeksining 126-moddasida belgilangan vakolatlar doirasida tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan tuman hokimi farmoyishlariga asosan kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun zarur mablag‘lar o‘z vaqtida ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27 va 126-moddalariga asosan tuman mahalliy byudjetining 2024-yil yillik ijrosi to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1. G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2024-yil yillik ijrosi to‘g‘risida tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2024-yil yillik ijrosidan kelib chiqib:

- G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2024-yil daromadlari ijrosi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar 1-ilovaga;

- G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2024-yil xarajatlari ijrosi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Tolibov), tuman soliq inspeksiyasi (D.Muxtorov)larga:

- 2025-yil uchun belgilangan daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlarini choraklar va oylar kesimida taqsimotini belgilash va prognoz reja ko‘rsatkichlarini barcha soliq turlari kesimida to‘liq bajarilishini ta’minlash;

- byudjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy byudjetga qo‘shimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish;

- mahalliy byudjet parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlarni, xususan birinchi darajali to‘lovlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta’minlash;

- byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatish topshirilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi  ASHUROV SHERZOD RAXIMOVICH

Xalq deputatlari G‘ijduvon tumani
Kengashining
2025-yil 20-fevraldagi
VII-7-22-2-34-K/25 -son qaroriga
1-ilova

G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2024-yil daromadlari ijrosi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

mln.so‘m

№	Daromadlar turlari nomi	Tasdiqlangan reja	O‘zgartirishlar *	Aniqlangan reja	Amalda ijrosi	Farqi (+,-)	Ijrosi, foizda
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0%
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	28 415,0	1 757,0	30 172,0	30 613,6	441,6	101,5%
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	37 989,5	1 633,5	39 623,0	43 189,2	3 566,3	109,0%
4.	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	3 758,0	-45,0	3 713,0	4 305,5	592,5	116,0%
5.	Oxirigi iste’molchiga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0%
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 779,5	1 683,5	4 463,0	3 551,9	-911,1	79,6%
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	20 137,0	-4 392,0	15 745,0	17 686,6	1 941,6	112,3%
8.	Yuridik shaxslar yer solig‘i	0,0	0,0	0,0	49,9	49,9	0,0%
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	28 731,0	1 680,0	30 411,0	30 544,7	133,7	100,4%
10.	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 000,0	30,0	1 030,0	1 624,1	594,1	157,7%
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq *	4 899,0	2 190,0	7 089,0	5 002,5	-2 086,5	70,6%
12.	Davlat boji	19 238,0	5 477,0	24 715,0	19 477,3	-5 237,7	78,8%
13.	Jarimalar	0,0	0,0	0,0	1 345,8	1 345,8	0,0%
14.	Ijara to‘lovlari	298,0	-19,0	279,0	203,1	-75,9	72,8%

15.	Dividendlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0%
16.	Yig‘imlar	0,0	0,0	0,0	3,6	3,6	0,0%
17.	Boshqa tushumlar	0,0	0,0	0,0	4 368,4	4 368,4	0,0%
	Daromadlar jami	**147 245,0**	**9 995,0**	**157 240,0**	**161 966,5**	**4 726,6**	**103,0%**

** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 yanvardagi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 9 fevraldagi 79-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlariga asosan qishloq xo‘jaligi maqsadlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasining yilllik prognozini 40 foizga oshirilganligi inobatga olingan. Shuningdek, Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boqsharmasining bidirishnomalari asosida mahalliy byudjetga tushumlardan kelib chiqib, soliq turlari bo‘yicha reja ko‘rsatkichlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan*

Xalq deputatlari G‘ijduvon tumani
Kengashining
2025-yil 20-fevraldagi
VII-7-22-2-34-K/25 -son qaroriga
2-ilova

G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2024-yil xarajatlari ijrosi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

mln.so‘m

№	Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilari nomi	Tasdiqlangan reja	O‘zgartirishlar *	Aniqlangan reja	Amalda ijrosi	Farqi (+,-)	Ijrosi foizda, %
	G‘ijduvon tumani bo‘yicha jami	**314 891,2**	**76 548,8**	**391 440,0**	**395 285,4**	**3 845,4**	**101,0%**
1.	Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi	48 031,0	39 499,0	87 530,1	88 131,7	601,7	100,7%
2.	Tibbiyot birlashmasi	149 246,4	27 075,9	176 322,3	176 351,6	29,3	100,0%
3.	Madaniyat sohasi tashkilotlari	9 812,5	-541,0	9 271,5	9 371,2	99,7	101,1%
4.	Sport maktabi	8 583,1	134,9	8 718,0	8 716,9	-1,1	100,0%
5.	Qishloq xo‘jaligi tashkilotlari	4 630,2	425,4	5 055,6	5 055,5	-0,1	100,0%
6.	Suv xo‘jaligi tashkilotlari	1 974,7	203,2	2 177,9	2 177,9	-0,0	100,0%
7.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 912,0	1 230,0	3 142,0	3 139,1	-2,8	99,9%
8.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 055,8	425,2	2 481,0	2 566,8	85,8	103,5%
9.	Soliq inspeksiyasi	7 145,0	385,9	7 530,9	7 589,0	58,1	100,8%
10.	Tuman hokimligi	68 940,5	6 483,2	75 423,7	78 280,9	2 857,2	103,8%
-	shundan, "Fuqarolar tashabbusi" jamg‘armasiga o‘tkazilgan mablag‘lar	29 769,6	215,7	29 985,3	30 282,4	297,1	101,0%
11.	Prezident Admistratsiyasiga qarashli tashkilotlar	886,9	57,8	944,7	995,5	50,9	105,4%
12.	Kengash kotibiyati	265,0	-1,5	263,5	338,3	74,8	128,4%
13.	Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi	6 599,0	940,4	7 539,4	7 539,4	-0,0	100,0%
14.	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	4 809,0	230,5	5 039,5	5 031,5	-8,0	99,8%

** Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari, tuman hokimining tegishli farmoyishlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya vazirligining bidirishnomalariga asosan kiritilgan o‘zgartirishlar.*